

Toqboyeva Dilshoda Zayniyevna
Navoiy davlat pedagogika instituti
umumiy pedagogika va psixologiya
kafedrasi katta o'qituvchisi

O'SMIRLAR XULQIDAGI NUQSONLARNI KORREKSIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smirlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va ularning xulqidagi nuqsonlarni korreksiylashning pedagogik-psixologik asoslari hamda o'smirlarning ijtimoiy xulq-atvorining asosiy shakllarini empirik o'rganilgan. Shuningdek o'smirlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlarining o'zbek va xorij olimlari tominidan ilmiy va amaliy o'rganilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: deviant, intellekt, qobiliyat, temperament, adikktiv, individuallik, korreksiya, diagnostika, individual psixologik xususiyatlar, subyektiv nazorat.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОРРЕКЦИИ ДЕФЕКТОВ ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В данной статье рассмотрены педагогико-психологические основы диагностики уровня воспитанности подростков и коррекции дефектов их поведения, а также эмпирически изучены основные формы социального поведения подростков. Также речь идет о научном и практическом изучении социально-психологических особенностей подростков у узбекских и зарубежных ученых.

Ключевые слова: девиантность, интеллект, способности, темперамент, адиктивность, индивидуальность, коррекция, диагностика, индивидуально-психологические особенности, субъективный контроль.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF CORRECTING DEFECTS IN ADOLESCENT BEHAVIOR

Annotation. This article is an empirical study of the pedagogical-psychological foundations of diagnosing the level of upbringing of adolescents and correcting defects in their behavior, as well as the main forms of social behavior of adolescents. It also talks about the scientific and practical study of Uzbek and foreign scientists of the social psychological characteristics of adolescents.

Key words: deviant, intellect, ability, temperament, addictive, individuality, correction, diagnostics, individual psychological characteristics, subjective control.

Kirish. Voyaga etmagan yoshlarning turli yosh toifalaridagi deviant xulq-atvorining o'sishi bolalar va yoshlar bilan profilaktika ishlarini tashkil etish muammosining dolzarbligini ko'rsatdi, ammo profilaktika texnologiyalarini joriy etish tajribaga ega bo'lgan bolalar bilan olib borilayotganligi sababli xulq-atvordagi ma'lum deviant og'ishlarni hisobga olgan holda, ushbu faoliyat turining yo'nalishlaridan biri sifatida tuzatish ishlarini ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Insoniyat paydo bo'lganidan etiboran farzandlarining barkamol voyaga etishi jamiyatda muhim muammo sifatida qarab kelingan. Chunki, jamiyat mavjud ekan, insonga xos barcha sifatlar, mafkuraviy qarashlar uning xarakteriga, ongiga, tafakkuriga singdirib boriladi. Tarbiyaning maqsadi, mazmuni va unga qo'yiladigan talablar jamiyat o'zgarishi, davr o'tishi va zamon rivojlanishi bilan ham o'zgarib boraveradi.

Ma'lumki, psixologiya fanida aynan o'smirlik davri va o'smirlik davridagi xulq og'ishlari muammosiga bag'ishlangan va uning barcha yo'nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar etarli bo'lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida o'smirlarning o'zaro munosabati va ularning ziddiyatli vaziyatlardagi xulq-atvori muammosining zarurligini

ko'rsata oluvchi va uning "metodologik ildizlarini" asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, o'smirlik davridagi xulq og'ishlariga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilishimizga to'g'ri keladi. Chunonchi, barcha tadqiqotchilar ham psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda o'smirlik davridagi xulq og'ishlari uchun muhim bo'lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab berganlar. Bular ichida o'smirlarning xulq-atvori uchun muxim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni Andreyeva G.M., Zabrodin Y.M., Karnegi D., Karimova V.M., Parigin B.D., Snigireva T.V., Filippov A.V., Yadov V.A., G'oziyev E.G., Grimak L.P., Lomov B.F., Leytes N.S., Golubeva E.A., Petrovskiy V.A., Rubinshteyn S.L.; ijtimoiy ustanovka bilan bog'liq tadqiqotlarni Asmolov A.G., Nadirashvili Sh.A., Uznadze D.N., Shixirev P.N., Allpoka G.W., shaxsga munosabat tizimi asosida yondashuv istiqbollariga bag'ishlangan tadqiqotlarni Zdravomyslov A.G., Kuzmin E.S., Lazurskiy A.F., Muksinov R.I., Stolin V.V., Bogoslavskiy V.V.; ta'lim muassasalarida psixologik xizmat modelini tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni Breynshteyn M.S., Dubrovina I.V., Kala U.V., Rudik V.V., Leymets X.O., Mattes G.O., Pratuivich Y.M., Sierd Y.L. alohida qayd etish mumkin. Bu esa o'smirlarning ziddiyatli vaziyatlardagi xulq-atvori jarayonining bugungi kundagi ayrim dolzarb jihatlari, muammolari va uning echimlari haqida o'ylashga, fikr mulohaza yuritishga va o'z tadqiqotimiz vazifalarini belgilab olishga nazariy - ilmiy va metodologik manba sifatida yordam beradi, deb o'ylaymiz. Ayniqsa, olimlar tomonidan bugungi kunda ijtimoiy-psixologik hodisalarga inson taraqqiyoti va qadriyatlari asosida yondoshuv muammosining (M.G.Andreeva, Y.M.Zabrodin, D. Karnegi, E.G'oziyev, V.M.Karimova, I.S.Kon, C.I. Koralev, B.D.Parigin, E.V.Shoroxova) va shaxs va faoliyat uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiluvchi psixologik yondashuvni ta'minlash muammosining L.S.Vigotskiy, M.G. Davletshin, U.Djeyms, A.G.Kovalev, A.N.Leontev, A.V.Petrovskiy, S.L. Rubinshteyn, V.A.Tokareva, E.Fromm, Kodirov B.R.) o'rta tashlanishi o'smirlarning ziddiyatli vaziyatlardagi xulq-atvori metodologiyasi haqida jiddiyoq o'ylashni va mulohaza yuritishni taqozo etmoqda.

Pedagogik lug'atda "korreksiya" tushunchasi (yunoncha "correctio" - tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki

to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion

faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat axsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon. Korreksiya

-hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyatdir. Bir qator olimlar: R.S. Nemov, D.V. Olshanskiy, G. Broyer, G. Matteslar: "Pedagogik korreksiya-tarbiya jarayonida yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi oldindan yo'l qo'yilgan nuqsonlarni bartaraf etish jarayonidir" - deb hisoblaydilar. N.V. Kuzmina bu jarayonni: «Korreksiyalash jarayoni-o'quvchilarning ongiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi va turli ijobiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi faoliyat turidir» -deb tavsiflaydi. Korreksiyalash ta'sirida o'quvchi-yoshlarning g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiya masalalari amalga oshiriladi. Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Demak, pedagogik diagnostika va korreksiya jarayonida bulardan birortasi (tafakkuri, ongi, hissiyoti, irodasi, qarashlari) e'tiboridan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Tahlil va natijalar. O'smirlik davri nafaqat u bilan muloqotga kirishuvchilar uchun, balki bola shaxsining o'zi uchun ham og'ir davr hisoblanadi. Ko'p hollarda ota-onalar hamda o'qituvchilar yosh davrining ma'lum bir bosqichiga kelib bolaning xarakter xususiyatlarida talaygina o'zgarishlar sodir bo'lganining shohidi bo'lishadi. Itoatgo'y, ko'ngilchan bolasining birdaniga qaysar, agressiv, ba'zi hollarda esa sho'x-shodon bolaning kamgap, indamas bo'lib qolishi hollarini tushuna olmay

qiynaladilar va bunday holatlarning sababini boshqa narsalardan izlaydilar. Ba'zan esa bu davr xususiyatlarini yaxshi bilmasliklari, ota-onalarda pedagogik-psixologik tushunchalarning etarli darajada shakllanmaganligi oqibatida bolani o'rinsiz ayblaydilar, undan yana avvalgidek itoatkor bo'lishlarini talab ham qiladilar. Aksariyat hollarda o'smirlar bilan ota-onalar va o'qituvchilar orasidagi kelib chiqadigan noxush holatlar ularning yosh davriga xos xususiyatlarini inobatga olmasliklari yoki umuman ushbu yosh bosqichiga xos bilimlarni etarlicha o'zlashtirmaganliklaridadir. Deviant xatti-harakatli (xulqi og'ishgan) bolalar va o'z-o'zini boshqara olmaydigan bolalar hech narsadan tap tortishmaydi, ular uchun qonun-qoidalar yo'q, ular o'qituvchilarini ham, ota-onasini ham tan olmasligi mumkin. Agar bundaylarga o'z vaqtida chora ko'rilmasa, o'z hohish-istaklarini jilovlay olmasa, bunday bolalar katta bo'lganda psixopat yoki ba'zi hollarda qonunbuzar bo'lib etishishi mumkin.

O'smirlik – shaxs shakllanishidagi eng muhim palla, tengdoshlari va atrofdagilar bilan o'zini qiyoslab, o'z holatidan, ko'rinishidan qoniqmaslik, ikkilanishlar davri hisoblanadi. Sababi o'smir bu davrda sekin-asta zaruriyatni anglab, ma'lum bir erkinlikka erisha boshlaydi, shunga ko'ra u qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lib boradi, ya'ni jamoatchilik rivojlanishining qonuniyatlari asosida mas'uliyat bilan harakat qila boshlaydi. Shu tufayli o'smirlik davri turli qarama-qarshi kechinmalar, qiyinchiliklar va krizislar bilan to'lib-toshgan. Shuning bilan birgalikda, bu davr bolalik hissiyotlarining yo'qolishi, xavotir tuyg'usi va psixologik noqulaylikning paydo bo'lish davridir.

O'smirlik davrini ko'pincha rivojlanishdagi proporsiyaning buzilishi davri deb ham ataydilar. Bu yoshda o'zining jismoniy xususiyatlariga e'tibor ortib, atrofdagilarning fikriga reaksiya kuchayadi, shaxsiy izzat-nafsi va xafagarchilik tuyg'usi ko'tariladi. Jismoniy kamchiliklar ko'pincha bo'rttiriladi. Dastavval, bolalik yoshiga solishtirganda o'z tanasiga ortib boruvchi e'tiborga nafaqat jismoniy o'zgarishlar, balki o'smirning yangi ijtimoiy roli ham sababdir. Atrofdagilar o'smirdan jismoniy etuklik evaziga rivojlanishning ma'lum bir muammolarini o'zlari uddalashlarini kutadilar. Kattalar g'amxo'rlikidan chiqishga intilib, o'smir o'zining ulg'ayayotgan "Men"ini erkin his qilishi uchun vaqtinchalik namoyon qila olish imkonini izlaydi. Buni u bo'sh vaqt muhitidan topadi. O'smir hayotida bo'sh vaqt ustuvor xarakterga ega. Bu vaqtni voyaga etmaganlar uydan tashqarida, tengdoshlari kompaniyasida o'tkazadilar. Ota-onalar o'smirning maktabdan tashqari vaqtdagi muloqotlariga ta'sir o'tkazmoqchi bo'ladilar, go'yoki ularning nazarida farzandlarini istalmagan aloqadan himoya qiladilar. Buning natijasida odamovi, yolg'izlikni xush ko'radigan o'smirlar paydo bo'ladi. O'smirlar axloqiga, birinchi navbatda, tashqi ijtimoiy muhit (mikromuhit hislar: oila, sinfdagi, maktabdagi sharoit, bu muhitning qolgan a'zolari bilan munosabatda), shuningdek, o'smir shaxsining turli "hayotiy omadsizliklar"ga reaksiya qilishiga bog'liq individual xususiyatlari ta'sir ko'rsatadi.

O'smir moslashmaganligining turli ko'rinishlarida ifodalanuvchi xulqi og'ishganlik nofarovon psixoiijtimoiy rivojlanish va ijtimoiylashuv jarayonining buzilishi natijasidir. Axir o'smir bu davrda o'z-o'zini har tomonlama anglashga, boshqa odamlar orasidagi o'z o'rnini topishga intilarkan, atrofidagi katta odamlarning qiliqlari, harakatlaridagi bir qancha sifatlarga havas bilan qaraydi, bu sifatlarni o'zida topa olmay qiynaladi. Ba'zida hatto o'zini to'laqonli emasday his qiladi. Shunday paytda bolaga birinchi yordam qo'lini atrofidagi yaqin odamlari, avvalo, ota-onasi, ustoz-murabbiyi cho'zmoqligi darkor. Ma'lumki, bola dastlab ota-onasidagi xislat va fazilatlarni ko'radi, keyin esa boshqa atrofdagilar bilan solishtirishni boshlaydi. Shunday ekan, ota-onalar farzandlari qalbiga yo'l topa bilishlari lozim. Xulqi og'ishgan (maktabdan qochib ketadigan, tengdoshlariga doimiy xalaqit qiladigan, sinfdoshlarining jig'iga tegadigan) bolalar kattalarning har qanday qo'llab-quvvatlashlariga muhtoj bo'ladilar. Ota-onalar sinf rahbari, o'qituvchi va maktab psixologlari yordamida bolaga ma'naviy yordam berishlari lozim bo'ladi.

Voyaga etmaganlarning kattalar bilan va o'zaro kelishmovchiliklari (oilada, maktabda, istiqomat joyida);

□ Voyaga etmaganlarning ko'chadagi o'zaro va boshqa norasmiy guruhlariga qo'shilishi va ular faoliyatida ishtirok etishi, ushbu guruhlarining rahbarlari tomonidan ularga tazyiq o'tkazilishi;

□ Voyaga etmaganlarning ularni u yoki bu qonunbuzarlikka yoki jinoyatga boshlovchi kattalar (ko'pincha ilgari sudlangan), shu-ningdek, ularni muntazam spirtli ichimlik va narkotik moddalar iste'mol qilishga jalb etuvchilar bilan o'zaro munosabatda bo'lishlari;

□ Voyaga etmaganlarni alohida (oilada) va ko'pchilik tarbiyasi (maktabda) jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar; tarbiyachilar (ota-onalar, o'qituvchilar)ning o'smirlar yoshi va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilmaslik yoki etarli anglay olmasliklaridir.

Rivojlanishda nuqsonlar va xulq-atvorda og'ishlar bo'lgan bolalar duch kelayotgan hozirgi ijtimoiy-pedagogik vaziyatdan kelib chiqib, korreksion pedagogika quyidagi muammolarni hal qilishga yordam berishga mo'ljallangan:

1. Bolalar va o'smirlardagi rivojlanish nuqsonlari va xulq-atvoridagi og'ishlarning tabiati va mohiyatini aniqlash, aniqlash. ularning paydo bo'lishining sabablari va shartlari.

2. Rivojlanishda nuqsonlari va xulq-atvori og'ishlari bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatning shakllanish va rivojlanish tarixini o'rganish.

3. Bolalar va o'smirlarning rivojlanishi va xulq-atvoridagi og'ishlarning oldini olish va pedagogik tuzatish bo'yicha etakchi tendentsiyalarni aniqlash.

4. Rivojlanishdagi nuqsonlari va xulq-atvoridagi og'ishlari bo'lgan bolaning shaxsiyatiga tuzatuvchi pedagogik ta'sir ko'rsatishning texnologiyalari, usullari, usullari va vositalari to'plamini ishlab chiqish.

5. Rivojlanish va xulq-atvorda nuqsonlari bo'lgan bolalarni davlat maktabida tuzatish va rivojlantirish tajribasini tahlil qilish.

6. Kompensatsion va korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim sinflari faoliyatining tashkiliy-pedagogik asoslarini aniqlang.

7. Rivojlanishda nuqsonlari va xulq-atvori og'ishgan bolalar va o'smirlar bilan o'qituvchilarni korreksion-pedagogik ishlarga tayyorlashda zarur o'quv-uslubiy bazani yaratish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'smirlarning individual tipologik xususiyatlari va o'smirlik davridagi xulq og'ishlarini o'rganish va -ijtimoiy psixologik muammo sifatida tadqiq etilishiga qaratilgan. O'smirlik - organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan xarakterlanib, bu davrda tananing intensiv tarzda rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro'y beradi. Yurak va qon tomirlar faoliyatida ham notekislik bo'lib, bu ham bola fe'lining o'zgaruvchan, dinamik va ba'zan noma'qulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqarishi ham mavzuning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi.

O'smirlik davridagi qiyinchiliklarning oldini olishning eng ishonchli va foydali yo'li - bu uning biror narsaga turg'un qiziqishiga erishish, faoliyat motivlarini mazmunliroq qilish va buni amalga oshirish uchun esa psixologga ehtiyoj seziladi. O'smirlar bilan ishlashda ularning individual tipologik xususiyatlariga ham e'tibor berish asosiy mezon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ***Bolalar va o'smirlardagi tajovuz: Darslik / Ed. N.M. Platonova. - Sankt-Peterburg: Rech, 2004 yil.***

2. ***Berkovitz L. Frustratsiya-agressiya: farazlar. - M.: Ta'lim, 1994. - B. 59-79.***

3. ***Feldshteyn D.I. Ontogenezda shaxs rivojlanishi psixologiyasi. - M.: Pedagogika, 1989 yil.***

4. ***Feldshteyn D.I. Mustaqil yoshlar guruhlar: ijtimoiy-psixologik jihat // Sovet pedagogikasi. - 1988. - No 7. - B. 54-60.***

5. ***Еникополов С.Н. Дети и психология агрессии / С.Н. Еникополов // Школа здоровья. - 2006. - № 3. - С. 31-39.***

6. ***Bartol K. Jinoiy xulq-atvor psixologiyasi / Tarjima. Ingliz tilidan M. - Sankt-Peterburg, 2004.***

7. ***Goneev A.D., Lifintseva N.I., Yalpaeva N.V. Korreksion pedagogika asoslari. -M., 2002.***

8. ***Lichko A.E. O'smirlarda psixopatiya va xarakter urg'usi. -L., 2010. P.31.***